



QARINDOSHLIK MUNOSABATLARINING JINGGA OID ATAMALAR BILAN IFODALANISHI

To'htasinova Fotima

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Lingvistika (ingliz tili) yo'nalishi magistranti

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada qarindoshlik munosabatlarini ifodalashda qo'llaniladigan atamalarning jinsga xos bo'lgan o'ziga xosliklari ba'zi bir misllorlar hamda shevaga xos bo'lgan atamalarning qisqacha izohlari yordamida ma'lumotlar berilgan.

KALIT SO'ZLAR: qarindoshlik atamaları, muqobillar, lug'aviy birliklar, just so'zlar, supperlative.

ABSTRACT: In this article, the gender-specific characteristics of terms used to express kinship relationships are explained with some examples and brief explanations of dialect-specific terms.

KEY WORDS: kinship terms, alternatives, lexical units, proper words, superlatives.

АННОТАЦИЯ: В этой статье гендерные характеристики терминов, используемых для выражения родственных отношений, объясняются с помощью некоторых примеров и кратких объяснений диалектных терминов.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: термины родства, альтернативы, лексические единицы, слова собственные, превосходная степень.



Ushbu maqola qarindoshlik munosabatlarda qo'llanuvchi atamalarni suppletiv munosabatlar uch guruhga xos suppletiv muqobillarga ajratilgan holda tahlilga tortilgan.

- a) “erkaklar jinsi”;
- b) “ayollar jinsi”;
- v) “erkaklar va ayollar jinsi”

Erkaklar jinsiga xos suppletiv muqobillar deb ataluvchi funktsionalsemantik guruhda aka-uka, og'a-ini juft so'zlarini tashkil qiluvchi ekvonim lug'aviy birliklar va ularning suppletiv muqobillari o'rganildi. “Aka” va “uka” so'zlari “bir ota va onaning o'g'il farzandlari” ma'nosini bildiradi. “Aka” leksemasi “bir ota va onaning yosh jihatdan katta”, “uka” leksemasi esa “bir ota va onaning yosh jihatdan kichik” o'g'il farzandlari ma'nosini bildiradi. “Aka” leksemasi ifodalagan shaxs “uka” so'zi ifodalagan shaxsda ikki yoki undan ortiq bo'lishi mumkin. “Aka” ma'nosi anglatgan shaxslar biri boshqasiga nisbatan “aka” va “ukalik” munosabatida bo'lib, ular “uka” ma'nosidagi shaxsga nisbatan “katta yoki to'ng'ich aka”, “o'rtancha aka” va “kichik yoki kenja aka” tarzida farqlanib, nomlanadi. Masalan, Katta aka dam u yengini, dam bu yengini ko'ziga bosayotgan Halimni hovlidan so'riga boshladi. Ukalaridan biri dasturxon, biri choy ko'tarib keldi (O'.Usmon); Ahrorning akalari miq etmay Halimning hikoyasini eshitishar, ora-chorada o'rtanchi aka so'kinardi (O'.Usmon). Xullas, “bir ota va onaning o'g'il farzandi” ma'nosi o'zaro barqaror suppletiv munosabatdagi “aka” va “uka” so'zlari vositasida ifodalanadiki, “aka” ma'nosidagi shaxs ham, “uka” ma'nosidagi shaxs ham yosh jihatdan farqlanuvchi “katta aka-uka”, “o'rtancha aka-uka”, “kichik aka-uka” singari so'z birikmalari yordamida konkretlashadi. “Aka va uka” so'zlari ham giponim, ham ekvonim xarakterida bo'lib, o'zaro geteronomik munosabatda semantik qurilishida “bir ota, har xil onalardan tug'ilgan o'g'il va qiz farzandlar” ma'nosi ham mavjud bo'lgan tugishganleksemasi bilan sinonimlar xarakteridagi suppletiv munosabatda bo'ladi.



O'zbek tilida "bir ota va onaning kichik o'g'li" ma'nosi o'zaro sinonimlar tavsifidagi uka va ini leksemalari bilan ifodalanib, geteronimiya munosabatida ekvonimik xarakterdagi suppletivlar hisoblanadi. "Uka" so'zi, "ini" so'zidan farq qilgan holda, jonli tilda "singil", "jiyan" so'zlari ma'nosida ham ishlatiladi. "Uka" so'zi "aka" so'zi bilan; "ini" so'zi esa, "og'a" so'zi bilan geteronimik munosabatda bog'lanab, barqaror suppletivlar xarakterida "aka-uka", "og'a- ini" juft so'zlarini hosil qiladi. Maqolada "aka va uka", "aka va singil", "opa va singil", "opa va uka" ma'nolarini anglatuvchi "egizak" so'zlarning etimologiyasi haqida ham ma'lumot beriladi. Bir ota va onadan tug'ilgan qiz farzandlar" ma'nosini ifodalovchi "opa" va "singil" leksemalari ham giponimik, ham ekvonimik xarakterga ega bo'ladi. Adabiy tilda "bir ota-onaning katta qizi" ma'nosini ifodalaydigan "opa"leksemasi o'zbek tilining turli shevalarida apa, opa, oyi, bucha, bicha, apay, aba, egachi kabi sinonimik variantlarda uchrab, o'ziga xos suppletiv munosabatlarni yuzaga keltiradi. "Opa" leksemasining "ayol jinsidagi farzand" ma'nosi to'ng'ich opa, o'rtancha opa va kichik opa singari so'z birikmalari yordamida ifodalanadi. "To'ng'ich opa", "o'rtanchi opa" va "kichik opa" so'z birikmalari giperonim xarakterdagi "opa" leksemasining alohida-alohida lug'aviy-mazmuniy variantlari maqomidagi giponimlar hisoblanadi va ularning har biri "singil" so'ziga nisbatan ekvonimlar ham sanaladi:

- a) "to'ng'ich(katta) opa-singil";
- b) "o'rtancha opa-singil";
- v) "kichik opa-singil" kabi.

Bir ota-onaning katta qizi" ma'nosini ifodalovchi atamalar tizimida "o'rtancha opa" atamasining semantik qurilishida ham "kattalik", ham "kichiklik" semalari sinxron-sinkret tarzda qorishgan bo'ladi; "o'rtanchi opa" atamasi anglatgan shaxs "katta(to'ng'ich) opa" atamasi anglatgan shaxsga nisbatan "singil" hisoblansa,



“kichik(kenja) opa” atamasi anglatgan shaxsga nisbatan “opa” hisoblanadi. “Opa” leksemasi “singil” leksemasi bilan geteronimik va ekvonimik munosabatlarda bog‘lanib, “opa-singil” juft so‘zini hosil qiladi va bu shevalarga xos “opa-uka” juft so‘zi bilan sinonimik maydonni hosil qiladi. “Opa-uka” juft so‘zining “uka” komponenti semantik qurilishida “erkaklik” semasi inkor etilib, “ayollik” yetakchi semaga aylanadi. “Opa” leksemasi vertikal chiziq qarindoshlik atamaları tizimiga mansub “ona”, “buvi”; gorizontál chiziq qarindoshlik tizimiga xos “amma”, “xola” so‘zlari bilan bir giponimiya paradigmasini hosil qiladi. Bunday lisoniy jarayonlarda “opa” so‘zining “singil”(“opa-singil”), uka(“opa-uka”) so‘zlari bilan suppletiv munosabati kuchli; “ona”, “amma” va “xola” so‘zlari bilan suppletiv munosabati kuchsiz assotsiatsiya ta’sirida bo‘ladi. Ota va onaga qarashli gorizontál chiziq atamalar tizimini “amaki”, “amma”, “amaktivachcha” va “ammavachcha” leksemalari tashkil qiladi. Bu tizimning erkaklar jinsiga mansub qarindoshlik ma’nolari amaki va tog‘a so‘zlari bilan ifodalanadi. Amaki” atamasi “otaning aka va ukasi” ma’nosidagi invariant lug‘aviy birlik bo‘lib, uning semantik qurilishida “otaning akasi”, “otaning ukasi” singari ma’nolar mavjud bo‘ladi. “Otadan yosh jihatdan katta” shaxslar o‘zbek tilining ayrim shevalarida bobo-buva, ota; “otadan kichik yoshdagilari” esa, aka, ova so‘zlari bilan ham ataladi. “Amaki” so‘zi A.A.Pokrovskayaning e’tirof etishicha, etimologik jihatdan tarkibi “aba + ga” morfem qismlardan tashkil topgan abake (abaga) so‘zi bilan bog‘lanadi; uning “ga” unsuri kichraytish ma’nosidagi “-ka” affiksining fonetik variantidir. “Otaning akasi yoki ukasi” ma’nolari giperonim tavsifidagi “amaki” so‘ziga “katta”, “kichik”, “o‘rtancha” so‘zlarining qo‘shilishidan hosil bo‘lgan giponim xarakteridagi so‘z birikmalari bilan ham ifodalanadi: katta(yoki to‘ng‘ich) amaki, o‘rtanchi amaki, kichik(yoki kenja) amaki. O‘zbek tilida “onaning akasi va ukasi” ma’nosi invariant maqomdagi “tog‘a” atamasi bilan ifodalanadi; uning semantik qurilishi “onaning akasi” va “onaning ukasi” kabi ikki ma’noni o‘z ichiga oladi. “Tog‘a” so‘zi kuchli assotsiatsiya va geteronimik munosabati ta’sirida “jiyan” so‘zi bilan barqaror suppletiv lug‘aviy birlik xarakterini



kasb etadi va “tog‘a-jiyan” juft so‘zi hosil bo‘ladi. “Tog‘a” atamasi, etimologik jihatdan, qirg‘iz tilidagi “tay ake” qo‘shma so‘zi bilan aloqadordir. “Tay” unsuri qirg‘iz tilida “ona tomondan”, “onaga qarashli qarindosh” ma’nolarini bildiradi. “Tog‘a” qirg‘iz tilidagi “tay og‘a” so‘zining fonetik jihatdan qisqargan muqobilidir: “tay oga –taog‘a–tog‘a”. Ota va onaga qarashli ayol jinsiga mansub qarindoshlik atamaları tizimi amma va xola so‘zlaridan tashkil topadi.

“Amma” o‘zbek tilida “otaning opasi va singlisi” ma’nosidagi lug‘aviy birlikdir. Mazkur so‘zning suppletiv muqobili “jiyan” so‘zi bo‘lib, ular kuchli assotsiatsiyaga asoslangan geteronimik munosabatda bog‘lanadi va “amma-jiyan” juft so‘zini hosil qiladi. “Amma” so‘zining semantik qurilishida “otaning opasi” hamda “otaning singlisi” ma’nolari mavjud bo‘lib, “otaning singlisi” ma’nosida shevalarda “opa” so‘zi ham ishlatiladi. “Ayollar jinsiga xos gorizontaal chiziq qarindoshlik” atamaları tizimida “onaning opasi va singlisi” ma’nosida “xola” so‘zi ham mavjudki, bu so‘z ayol jinsidagi shaxsning opasi yoki singlisining farzandi ma’nosidagi “jiyan” so‘zi bilan geteronimik suppletivi hisoblanadi: “xola-jiyan”. Ma’lum bo‘lishicha, “xola” so‘zi qadimgi tungus tilida “buvi” (“бабушка”) ma’nosida qo‘llanuvchi “katta” ma’nosidagi “xol” va “ona” ma’nosidagi “omani” so‘zi bilan bog‘lanar ekan. M.Saidovanning fikricha, “xol” so‘zi hozirgi tungus tilida arxaik lug‘aviy birlikka aylangan.

Maqolada “amma”, “xola” so‘zlarining barqaror suppletiv muqobili maqomidagi “jiyan” so‘zi va uning lug‘aviy-mazmunii variantlari (LMV) haqida ham atroflicha ma’lumot berilgan. Aka va uka hamda opa va singillarning farzandlari ma’nolarini bildiruvchi qarindoshlik atamaları tizimiga aka va ukalarning, opa va singillarning farzandlari ma’nolarini bildiruvchi so‘z va leksemalar kiradi. Mazkur guruhda “o‘g‘il” va “qiz” so‘zlari shu lug‘aviy qatlamga xos boshqa barcha so‘z va atamalarga nisbatan invariant lug‘aviy birlik maqomida bo‘ladi. Aka va ukalar, opa va ukalar



farzandlariaro qarindoshlik munosabatlari funktsional-semantik jihatdan quyidagi to‘rt guruhga bo‘linadi:

- a) aka va uka farzandlarining qarindoshligiga mansub lug‘aviy birliklar;
- b) opa va singil farzandlarining qarindoshligiga mansub lug‘aviy birliklar;
- v) aka hamda opa-singillar farzandlarining qarindoshligiga mansub lug‘aviy birliklar;
- g) uka hamda opa-singillar farzandlari qarindoshligiga mansub lug‘aviy birliklar.

“Aka va uka farzandlarining o‘zaro qarindoshligiga aloqador ma’nolar “amakivachcha” leksemasi vositasida ifodalanadi. “Amakivachcha” atamasining suppletiv muqobili ham “amakivachcha” bo‘lib, uning ma’nosi to‘rt LMV(lug‘aviy mazmuniy variant) yordamida reallashadi. “Amakivachcha” atamasi “amaki” so‘zi bilan suppletiv munosabatda bo‘ladi. “Amakivachcha” atamasining semantik qurilishida “jinsga ko‘ra farq” semasi neytrallashgan bo‘ladi, shuning uchun “amakivachcha” aka va ukalarning o‘g‘illariga nisbatan ham, qizlariga nisbatan ham ishlatilaveradi. “Opa va singillarning farzandlari” invariant ma’nosi invariant maqomdagi “xolavachcha” leksemasi yordamida ifodalanadi. “Xolavachcha”, “amakivachcha” so‘zining morfem qurilishi andozasida hosil bo‘lgan yasama so‘z bo‘lib, uning morfem tarkibi fors-tojik tiliga mansub “vachcha”(“bachcha”) unsurining “xola” so‘zi bilan qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. “Xolavachcha” leksemasining mazmun plani: a) “opaning o‘g‘li”(singilning o‘g‘liga nisbatan); b) “opaning qizi”(singilning o‘g‘liga nisbatan); v) “singilning o‘g‘li”(opaning o‘g‘liga nisbatan); g) “singilning qizi”(opaning qiziga nisbatan) kabi to‘rt LSV ni o‘z ichiga oladi. “Xolavchcha” so‘zi “xola” so‘zi bilan barqaror suppletiv munosabatda



bog‘lanadi. Ko‘pgina turkiy tillarda, shuningdek, o‘zbek tilining shevalarida ham, opa va singillarning farzandlariga nisbatan “bo‘la” atamasi ishlatiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Rahmatullayev O‘zbek tilining etimologik lug‘ati. Universitet
2. Ишаев А. Ўзбек шеваларидаги қариндошлик терминлари.
3. Z. M. Ma‘rufov tahriri ostida O‘zbek tilining izohli lug‘ati.
4. Саидова М.Ш. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик семантик таҳлили:НДА. –Тошкент, 1995.
5. Mahmud Koshg‘ariy.”Devoni lug‘ati turk”,I-III tom,Toshkent,1960-1963.
6. Sirojidinova, D. (2022). MULOQOT–SHAXSLARARO AXBOROT ALMASHINUV JARAYONI. *Journal of Integrated Education and Research*, 1(5), 335-337.
7. Sirojidinova, D. B (2023). MULOQOT VA MADANIYAT, Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi-4\3-2023